

MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA IQTISODIY TARBIYA

Atabekov Fozil O'razali o'g'li

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti

Maktabgacha ta'lim kafedrası dotsent v.b.

Erkinxodjayeva Gulnoza Eldorxo'ja qizi

Kengboyev Nurlan Tolgat o'g'li

Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda jismoniy tarbiya va sport I kurs

***Rezyume:** Barkamol avlodni tejamkorlik ruhida tarbiyalashda iqtisodiy tarbiyaning ahamiyati beqiyos. Ma'lumki, insonning kundalik turmush tarzi mehnat yoki boshqa bir faoliyat turi bilan bog'liq bo'ladi. O'sib kelayotgan bolaga iqtisod qilishni o'rgatish maktabgacha ta'lim tizimida ham muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim muassasalarida iqtisodiy tarbiya masalasi o'rganilgan bo'lib bugungi kundagi dolzarb jihatlari tahlil qilingan.*

***Tayanch so'zlar:** tarbiya, ta'lim, mehnat, iqtisod, estetika, bolalar, maktabgacha ta'lim muassasi, vatanparvarlik.*

Inson o'z kamoloti davomida turli yo'nalishda tarbiyalanadi. Ular ma'naviy, ma'rifiy, ekologik, vatanparvarlik, huquqiy, mehnatsevarlik, fuqarolik, estetik, jismoniy va iqtisodiy tarbiya kabi yo'nalishlarda joriy etilgan. Ular ichidan iqtisodiy tarbiya bo'lajak mutaxassislarni jamiyat va davlat, qolaversa, oiladagi jarayonlarga ongli munosabatini shakllantirish bilan birgalikda, tejamkorlikni, isrofgarchilikka nafratni, ishbilarmonlikni, tadbirkorlikni, tashabbuskorlik, iqtisodiy hisob-kitob va shu kabi iqtisodiy jihatlarni qamrab oluvchi insoniy fazilatlarini yuksaltirishga xizmat qiluvchi tarbiyaviy asosdir.

Demak, iqtisodiy tarbiya insonning ham ma'naviy jihatdan, ham moddiy jihatdan yuksaklik sari sa'y-harakatlarini ta'minlashdan iborat.

Barkamol avlodni tejamkorlik ruhida tarbiyalashda iqtisodiy tarbiyaning ahamiyati beqiyos. Ma'lumki, insonning kundalik turmush tarzi mehnat yoki boshqa bir faoliyat turi bilan bog'liq bo'ladi. Ularda mehnat (xoh jismoniy bo'lsin,

xoh aqliy) sarfining nechog'liq kam bo'lib, yuqori samaradorlikka erishish muhimdir.

Kam mehnat sarflab, ko'proq (yaxshiroq) natijani qo'lga kiritish ushbu sohadagi optimal variant hisoblanadi.

Iqtisodiy tarbiya bolalarning tevarak-atrofdagi muhitni, muayyan buyumlarni anglab, ularni avaylab-asrash va bilib olishning mustahkam vositasi bo'lib, ularga nazariy bilimlarni qo'Uash imkoniyatini yaratib beradi va ularning ongini hissiy tasavvurlar bilan boyitadi.

Iqtisodiy tarbiya - ishlab chiqarishning jamiyatda tutgan o'rni, ishlab chiqarish vositalari va ish qurollarining mohiyati, ular orasidagi uzviy aloqadorlikni o'rgatish va odamlarda shu bilimlarga ko'nikma hosil qilish.

Iqtisodiy ta'lim va tarbiyaning asosiy **maqsadi** o'quv mashg'ulotlarini olib borishda talaba-yoshlar ongida tejamkorlik, ishbilarmonlik, tadbirkorlik kabi iqtisodiy jihatlarni o'z ichiga oluvchi xislatlarga nisbatan ongli munosabatni shakllantirishdan iborat.

Ushbu maqsadni amalga oshirishda bir qator **vazifalarni** hal qilishga to'g'ri keladi. Ular quyidagilar:

- Iqtisodiyotning mohiyatini anglatish orqali inson iqtisodiy qudratining oila va davlat iqtisodiy qudratini yuksaltirishdagi ahamiyatini yoritish;
- Inson mehnati hamda mehnat mahsuli bo'lgan moddiy va ma'naviy ne'matlarni qadrlash, asrab-avaylash;
- tejamkorlik, ishbilarmonlikka muhabbatni uyg'otish;
- oila budjeti va moddiy boyliklarni sarflash haqidagi bilimlarni yuksaltirish;
- tejamkorlik va boylikni ijtimoiy burch sifatida qarash;
- moddiy va ma'naviy boyliklar haqida muntazam ravishda tasavvurlar shakllantirish;
- iqtisodiy faoliyatni tashkil etishga ongli munosabatni tarbiyalash; • iqtisodiyotni ilmiy asosda tashkil etish;

- mehnat samaraligidan faxrlanish. Har qanday tarbiyada ham o'sha tarbiyaga tegishli tushunchalarning mazmunini to'liq anglab yetish o'sha tarbiya samaradorligini oshirishi hech kimga sir emas.

Bu borada o'quv yurti va oila sharoitida talaba-yoshlarning iqtisodiy tafakkurini yuksaltirishda, ularni hamkorlikka va ishbilarmonlikka chaqirishni, iqtisodiy hisob-kitoblarni o'rganishni hayotiy tajriba asosida amalga oshirish iqtisodiy tarbiyada muhim ahamiyat kasb etadi.

Iqtisodiy tarbiyada tejamkorlik, tadbirkorlik, mehnatsevarlik, tashabbuskorlik, ishbilarmonlik, iqtisodiy hisob-kitob, oila budjeti va boylik kabi tushunchalarning muhim ahamiyati bor.

Ular ichidagi boylik tushunchasiga juda qadimdan boshlab turli fikrlar bildirilgan.

- Talaba-yoshlarga iqtisodiy tarbiya berishda tarbiyaning mazmunmohiyatiga e'tibor berilsa, ijobiy pedagogik samarani qo'lga kiritish mumkin bo'ladi.

Iqtisodiyotda dastavval, oila budjeti va iqtisodiy qudrati eng muhim asoslardan ekanligi hech kimga sir emas. Shu sababli oila budjeti to'g'risidagi ma'lumotlarni keltirib o'tamiz.

Oila budjeti.

➤ Inson shaxs sifatida shakllandimi, endi u oilaga va jamiyatga xoh iqtisodiy, xoh ma'naviy jihatdan bo'lsin foydasi tegishini harakatlarni qilishi lozim. Ayniqsa, shaxs oilali bo'lganida oila iqtisodiy qudratini mustahkamlash asosiy vazifa bo'lish kerak.

➤ Oila budjetini mustahkamlash va sarflashda quyidagilarga e'tibor berib borish zarur:

➤ oilaviy ehtiyoj;

➤ oilaviy orzu-havas;

➤ oila ravnaqini o'ylash va shu kabilar.

➤ Bunda oilaviy ehtiyoj zarur, uni bajarishga harakat qilish kerak.

➤ Oilaviy orzu-havas, oila ravnaqi uchun imkoniyat darajasida harakat qilish Iozim.

➤ Demak, iqtisodiy tarbiyani oiladan boshlash talab qilinadi. Bu orqali oilasiga va qolaversa, shaxsan o'ziga tegishli bo'gan imkoniyat hamda ne'matlarning qadr-qimmatiga etishga erishiladi. Bularning keyingi holatlarda ham, ya'ni o'rta umumta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi va oliy ta'limdagi o'quv muassasalarida ham iqtisodiy tarbiyani amalga oshirishga ijobiy ta'siri katta bo'ladi.

➤ Iqtisodiy tarbiyaning dastlabki bosqichlari uzoq tarixga ega. Ular kishilik jamiyati taraqqiyotiga mos ravishda tako'illashib kelavergan.

➤ Iqtisodiy tarbiyaga tegishli ma'lumotlarni ilohiy kitob - Qur'oni Karimda va muqaddas kitob - Hadisi sharif hamda «Avesto» bitiklarida ham topish mumkin. Iqtisodiy tarbiya Sharq mutafakkirlarining asarlarida ham bayon etib kelingan. Jumladan, Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy asarlarida qozixonada meros va uni taqsimlash bo'yicha alohida xodim faoliyat ko'rsatishi qayd etilgan. Ular shubhasiz qozixonadagi iqtisodiy muammolar yechimlarini hal etish uchun jalb etilgan.

➤ Bu borada Farobiyning «Inson o'z mablag'ini sarflashni bilishi kerak. Pul sarflashda qizg'anchilik qilish xasislikka olib keladi. Pullarni rejasiz ishlatish esa insonni beboshlikka etaklaydi», degan fikri o'rinidir.

➤ Tejamkorlikda vaqt masalasi alohida e'tiborga molik tushunchadir. U inson ixtiyoridagi bebaho xazina. Shu sababli ham «Kun qaytadi, ammo vaqt qaytmaydi», degan naql bor, chunki vaqt o'lchovlidir. Undan dunyoni o'rganish, o'zgartirish, shaxsiy manfaat, el-yurt xizmati va mehnat samaradorligini oshirish borasidagi faoliyatlarda foydalanish mumkin. Shu sababli ham u qadrlidir. Tarixiy voqealardan foydalanish iqtisodiy tarbiya berishning samaradorligini oshiradi va talaba-yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishga yordam beradi.

➤ Talaba-yoshlarga iqtisodiy tarbiya berish yo'llaridan yana biri - bu tarixiy voqealar asosida, ularning iqtisodiy tarbiyaga oid tafakkurini boyitishdan iboratdir.

➤ Tejamkorlik tarbiyasi mehnat, axloqiy va iqtisodiy tarbiyalarning muhim asosi hisoblanadi. Shu sababli ham talabalarga iqtisodiy tarbiya berishda, o‘g‘itlar va hikmatlardan foydalanib, ularni tahlil qilib borilsa, iqtisodiy tarbiya samarali kechadi.

Demak, iqtisodiy tarbiya berishning samarali yo‘llaridan biri - bu iqtisodiy tafakkurni yuksaltirishga oid o‘g‘it va hikmatlardan foydalanishdan iborat bo‘lib, dars mashg‘ulotlarida ulardan mosini tanlab va uni tahlil qilib, talabalarning iqtisodiy tafakkuri rivojlantiriladi.

ADABIYOTLAR:

1. Yusupov O.N. Cognitive semantics in context. Wschodnioeuropejskie Czasopismo Naukowe 7 (2), 84-87.
2. Юсупов О.Н. Ўзбек адабиётининг инглиз тилидаги таржималарининг лингвокогнитив тадқиқи. Сўз санъати халқаро журнали. 3 сон, 3 жилд. Б.102-105.
3. Юсупов О.Н. О‘zbek poeziya namunalari tarjimasining ingliz tilidagi interpretatsiyasi. Тошкент давлат педагогика университети илмий ахборатлари. 3 жилд, 19 сон, - ТДПУ, 2019. Б.146-150.
4. Юсупов О.Н. Анализ проблемы стиля в художественном переводе. The Way of Science, 94. 2014.
5. Юсупов О.Н. Бадиий матннинг лингвокогнитив хусусиятлари. Тошкент давлат педагогика университети илмий ахборатлари, 1 (10), 35 - 37. 2017.
6. Юсупов О.Н. Специфика художественного перевода. Наука и Мир 2 (3), 170 - 172. 2014.
7. О.Н. Юсупов. Pride of Uzbek nation. The Way of Science 9 (31), 80-81
8. ОН Юсупов. Чет тили дарсларида таржима муқобиллигини яратиш асосида тилни ривожлантириш. Тил ва адабиёт таълими 2 (2), 96-99
9. О.Н. Юсупов. Стилистика. I том, Ташкент, ТДПУ, 2017. 320 стр.
10. О.Н. Юсупов. Лексикология. I том, Ташкент, ТДПУ, 2017. 344 стр.

- 11.O.Yusupov, I.Mirzaeva, A.Mukhamedaminov, D.Shigabutdinova, S.Nazarov, U.Muradov, T.Toshpulatov, Sh.Fayziev, Sh.Fayziev. Phraseological Units with Colour Designation Component as a Means of Reflecting the Self-Consciousness of the English People. LINGUISTICA ANTVERPIENSIA, 2021. P. 719-731
- 12.Yusupov O.N. Subtleties Of Literary Translation. İlköğretim Online (IOO) - Elementary Education Online 4 (4), 1987-1991